

SINXRON TARJIMA JARAYONIDA HUQUQSHUNOSLIK TERMINLARINI TARJIMA QILISHNING XUSUSIYATLARI

O‘ZDJTU 2-kurs magistranti

Soyibova Dilafuz

Ilmiy rahbar: Prof. Samigova X.B.

Annotatsiya: Ushbu maqola sinxron tarjima jarayonida huquqshunoslikka oid terminlarni tarjima qilish shuningdek, huquqshunoslik terminlarini tarjima qilish yuzasidan tadqiqot olib borgan o‘zbek va chet el tadqiqotchilari va ularning kitoblari haqida ma’lumot beradi. Bundan tashqari mazkur maqolada huquqshunoslik terminlarini sinxron tarjima qilish jarayonida e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan jihatlar haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Xususan huquqshunoslik terminlarini sinxron tarjima qilishda tomonlarning huquqiy tizimlarining mosligi, madaniyatlararo xususiyatlarning o‘zaro hamohangligi shular jumlasidandir. Shuningdek ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonida ko‘p uchrab turadigan ba’zi huquqshunoslik terminlarining tarjima va analizi haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy tizim, madaniy kontekst, konnatatsion farq, ekvivalent, arbitraj.

Sinxron tarjima jarayonida huquqshunoslikka oid terminlarning tarjimasi ancha murakkab bo‘lib, tarjimonning til bilimiga qo‘shimcha ravishda huquqiy tushunchalarni chuqur bilishini talab qiladi. Bunda nafaqat lug‘aviy ma’nolar, balki yuridik tizimlar va madaniy kontekstlarning farqlari ham hisobga olinishi kerak. Sinxron tarjima vaqtida yuridik atamalarni tarjima qilishda aniqlik va tezlik talab qilinadi, bu esa tarjimonni katta bosim ostida ishlashga majbur qiladi. Huquqshunoslikka oid terminlarni sinxron tarjima jarayonida tarjima qilish yuzasidan o‘zbek tadqiqotchilaridan Shirin Akramova va Dilshod Muxtarov olib borgan izlanishlar e’tiborga molikdir. Xususan, Shirin Akramova sinxron tarjima jarayonida uchraydigan huquqiy terminlar tarjimasiga oid ko‘plab ilmiy maqolalar muallifi. Sh. Akramova maqolalarida huquqiy terminlarning ko‘p ma’nologli va ularni tarjima qilish qilishdagi muammolarni yoritib bergan. “Huquqiy terminlarning madaniyatlararo tarjimasi” ushbu izlanishda u sinxron tarjimada huquqshunoslikka oid terminlarning madaniyatga va huquqiy tizimlarga mos ravishda tarjima qilinishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Darhaqiqat sinxron tarjima jarayonida huquqshunoslikka oid terminlarning turli madaniyatlardagi farqlar va xususiyatlarni shuningdek, har bir davlatning o‘z huquqiy tizimiga mos ravishda tarjima qilinishi muhim masala hisoblanadi. Chunki bu ikki jihatni hisobga olmasdan huquqshunoslikka oid so‘z va terminlarni tarjima qilish tomonlar o‘rtasida kelishmovchilik va tushunmovchilik holatlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Sinxron tarjima va huquqiy terminlarning tarjimasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlardan biri Dilshod Muxtarov bo‘ladi. D. Muxtarov izlanishlarida xalqaro huquq sohasidagi tarjima qiyinchiliklarini tahlil qilgan. "Sinxron tarjimada xalqaro huquqiy terminlarning tarjimasi" nomli tadqiqotida sinxron tarjima vaqtida yuzaga keladigan yuridik va lingvistik muammolar tahlil qilinadi. Chet el olimlaridan Peter



M. Tiersma – "Legal Language" kitobida "Mens rea" (jinoyat niyati) terminini analiz qiladi. Bu atama lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, ingliz huquqida keng qo‘llanadi. Uni tarjima qilishda to‘liq aniq ekvivalent yo‘qligi sababli, tarjimonlar tushuncha izohlab, kengroq tarjima qilishi kerak bo‘ladi. Tiersma yuridik tildagi lotin terminlarining boshqa tillarga tarjima qilinishidagi noqulayliklarni ko‘rsatadi. Har doim ham yuridik terminlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin emas, chunki huquqiy tizimlar o‘rtasidagi tafovutlar terminologiyani moslashtirishni talab qiladi. . Lawrence M. Solan – "The Language of Judges" nomli kitobida "Reasonable doubt" atamasi AQSh jinoyat sudlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi. Buni boshqa tillarga tarjima qilishda noaniqlik va tafsilotlar yo‘qolishi mumkin. Masalan, ispan tiliga "duda razonable" deb tarjima qilinsa, ba'zi huquqiy tizimlarda bu atamaning ahamiyati o‘zgarishi mumkin. Solan huquqiy termin va atamalarni to‘g‘ri tushunish va tarjima qilish uchun sudya va tarjimonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv zarurligini ta’kidlaydi. Har bir tilning madaniy va huquqiy farqlari sud jarayonida noto‘g‘ri tarjimaga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi olim va tadqiqotchilarning sinxron tarjima jarayonida huquqshunoslikka oid terminlarni tarjima qilishga oid fikr va mulohazalariga tayangan holda sinxron tarjimada huquqiy terminlar tarjimasi bo‘yicha asosiy xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Huquqiy tizimlararo farqlar:

Har bir mamlakatning huquqiy tizimi o‘ziga xos bo‘lib, turli davlatlarning yuridik terminlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Sinxron tarjima jarayonida bunday farqlarni tezda tushunib, mos tarjimani topish katta chaqiriq hisoblanadi. Masalan, "prokuror" so‘zi o‘zbek tilidan "prosecutor" deb tarjima qilinsa-da, ingliz huquqiy tizimida uning vakolatlari o‘zbek tizimidagidan farq qilishi mumkin.

2. Konnotatsion farqlar:

Ba'zi huquqiy atamalar bir til va tizimda muayyan ma’noni anglatishi mumkin, lekin boshqa tizimda bu ma’no boshqacha bo‘lishi mumkin. Masalan, "sudya" o‘zbek tilidan "judge" deb tarjima qilinadi, ammo ayrim mamlakatlarda "judge"ning roli turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun sinxron tarjimon bu kabi farqlarni bilib, har doim ma’noning to‘g‘ri tushunilishiga e’tibor qaratishi kerak.

3. So‘zlashuv va rasmiy atamalar o‘rtasidagi farq:

Sinxron tarjima jarayonida ba'zi huquqiy atamalar rasmiy matnlarda bir xil, lekin og‘zaki nutqda boshqacha ishlatilishi mumkin. Masalan, xalqaro kelishuvlar muhokamasida "arbitraj" so‘zi "arbitration" deb tarjima qilinadi, lekin ba'zi hollarda ushbu atama "dispute resolution" (nizoni hal qilish) sifatida umumlashtirilishi mumkin.

4. Tezlik va aniqlik:

Sinxron tarjimada tarjimon bir vaqtning o‘zida nutqni tinglashi va tarjima qilishi kerak. Huquqiy terminlarni tarjima qilishda har qanday xato noto‘g‘ri yuridik tushunchalarga olib kelishi mumkin, bu esa kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi yoki muzokaralarning noto‘g‘ri yo‘nalishda ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

5. Huquqiy terminlarning ko‘p ma’noliligi:



Ba’zi huquqiy terminlar bir nechta ma’noga ega bo’lishi mumkin. Tarjimon esa matn kontekstidan kelib chiqib, eng mos variantni tanlashi kerak. Masalan, "responsibility" so’zi "javobgarlik" yoki "mas’uliyat" deb tarjima qilinadi. Bu terminning aniq ma’nosini kontekstga qarab tarjimon to’g’ri tanlashi lozim.

Huquqshunoslik terminlarining yuqorida sanab o’tilgan farqli tomonlari jihatidan bir nechta huquqshunoslikka oid bo’lgan terminlarning o’zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi analizi bilan tanishib chiqamiz. Masalan:

"Javobgarlik" – Bu atama o’zbek tilidan "liability" deb tarjima qilinishi mumkin, ammo kontekstga qarab "responsibility" yoki "accountability" kabi so’zlar ham ishlatilishi mumkin.

"Kelishuv" – Bu atama "agreement" deb tarjima qilinadi, ammo sinxron tarjimada uning konteksti bo’yicha "settlement", "contract" yoki "understanding" kabi boshqa variantlar ham ishlatilishi mumkin.

"Dalil" – Ingliz tilida bu atama "evidence" deb tarjima qilinadi. Biroq, sinxron tarjima jarayonida tergov yoki sud jarayoniga bog’liq holda bu so’zning aniq ma’nosi tezda anglanishi va aniq tarjima qilinishi kerak.

"Prokuror" – O’zbek tilidan "prosecutor" deb tarjima qilinadi, lekin huquqiy tizimga qarab "district attorney" yoki "state attorney" kabi boshqa variantlar ham ishlatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, sinxron tarjima jarayonida huquqshunoslikka oid terminlarni tarjima qilishda tomonlar aro huquq tizimlari haqida ma’lumotga ega bo’lish, shuningdek madaniyatlararo farqli jihatlarni to’g’ri ifodalanishi, huquqshunoslikka oid terminlarning maqbul ekvivalentini bilish va konnotatsion farqlarni to’g’ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, sinxron tarjima jarayonida huquqshunoslik terminlarini to’g’ri tarjima qilish xalqaro huquqiy jarayonlar va muzokarlarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Xatolar yoki noto’g’ri tarjima katta huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, huquqshunoslikka oid terminlarni sinxron tarjima qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo’lib, global miqyosda huquqiy hamkorlik, xalqaro kelishuvlar va shartnomalar muvaffaqiyatining kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alekseeva I.S. Professional interpreter training. Textbook on Interpretation and Translation for Translators and Teachers. SPb.: Institute of Foreign Languages, 2000.-P.192.

2. Burukina O.A. Translation strategies and translation tactics // University translation studies. In: Materials of X international scientific conference. 10:Materials of X International Scientific Conference on Translation Studies

"Fedorovsky readings", 23-25 October 2008. SPb.: Faculty of Philology and Arts,

SPbSU, 2009.-PP. 73-83.

3. Leontiev A.A. Fundamentals of psycholinguistics. 3rd ed. M.: Sysl; St.-Petersburg: Lan', 2003.-P.288.

4. Sdobnikov V.V., Petrova O. Translation Theory: textbook for students of linguistic universities and faculties of foreign languages. M.: ACT: Vostok-West,2007.- P.448.

5. Sdobnikov V.V. Translation and communicative situation. Moscow: Flint 2015.-464 p.

6. Sdobnikov V.V. Translation strategy: a common definition // Vestnik of Irkutsk State Linguistic University. 2011. No1 (3).- PP. 165-172.

7. Voynich I.V. Translation strategies (translation strategies)// Basic concepts of English-speaking translation studies: terminological dictionary / edited by M.B.Rarenko. Moscow: Institute of Scientific Information on Social Sciences of RAS,2011.-P.205.

8. Zubanova I. V. Just turn down the water. On compression in simultaneous translation // Bridges. 2017. No2 (54).-P.43-53.

9. Shiryaev A.F. Simultaneous interpreting: Activities of simultaneous interpreters and Simultaneous interpreter activities and methods of teaching simultaneous interpreting. M.: Voenizdat, 1979.-P. 183.